

## MOTOR ALALIYALI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH

*Ergasheva Shoira To'likovna*

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti*

*Maxsus pedagogika yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada motor alaliya va alaliya nutq nuqsonining tuzilishi, shakllari va namoyon bo'lishi hamda motor alaliyali bolalar nutqini rivojlantirish yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Alaliya, motor alaliya, dialog, monolog, artikulyatsion harakatlar, agrammatizm, grammatik tizim, leksik-grammatik texnologiyalar.

**Annotation:** The article describes the structure, forms and manifestation of motor alalia and alalia speech defects, as well as the development of speech of children with motor alalia.

**Keywords:** Alalia, motor alalia, dialogue, monologue, articulatory movements, agrammatism, grammatical system, lexical-grammatical technologies.

**Аннотация:** В статье освещены структура, формы и проявления моторной алалии и речевого дефекта алалии, а также развитие речи детей с моторной алалией.

**Ключевые слова:** Алалия, моторная алалия, диалог, монолог, артикуляционные движения, аграмматизм, грамматическая система, лексико-грамматические технологии.

Bolada faol nuqtning yuzaga kelishi, unga kattalar tomonidan taklif qilinayotgan o'ziga xos hamkorlik darajasiga yetganligi yoki yetmaganligiga bog'liq bo'ladi. Agar yetarli darajaga yetgan bo'lsa, hayotning birinchi yili yakunida kichik bola o'zining kattalarga qaratilgan ilk so'zlarini talaffuz qiladi, keyin esa necha yillar davomida atrofdagi kishilar, dastlab kattalar bilan, ikki yoshdan so'ng esa boshqa bolalar bilan o'zaro harakat uchun verbal vositalardan foydalanish qobiliyatini egallaydi.

Bolalarda nutqiy reaksiyannig uchta asosiy shakli mavjuddir:

Hamkor mavjud bo'lmagandagi nutqiy reaksiya – bu nisbatan elementar shaklidir.

Dialog – muloqatda ikki kishi faol: biri ikkinchisiga savol bilan murojaat qiladi, boshqasi javob beradi va aksincha.

Monolog – bolalardan biri boshqalar oldida gapiradi.

Alaliya – tibbiy – psixologik – pedagogik muammo. Logopediya sohasiga, bola shaxsi va nutq rivojlanishiga yo'naltirilgan korreksion ta'sir usullari va tamoyillarini aniqlash kiradi. Sistemali uzoq davom etuvchi logopedik ishlar qator hollarda bolalarning nutqiy muloqoti uchun yetarli vositalarni beradi. Nutiy nuqsonni tabiatiga ko'ra bu muammo motor va sensor alaliya ko'rinishiga ko'ra differensial hal etiladi.

Alaliyada nutq shakllanishiga har tomonlama yondoshuv, nutqni rivojlanishiga yordam beruvchi va bilish faoliyatining yaxshilanishiga imkon beruvchi nutqning barcha funksiyalarini rivojlanishiga e'tiborni qaratadi.

Nutq va shaxsiyat ustidan bir butun har tomonlama tizimli ish olib boriladi. Bunda ontogenezda nutqiy funksiyalar rivojlanishi qonuniyatlari hisobga olinadi.

Tizimli logopedik ish nutqiy rivojlanishdagi uzilishlarni to'ldirishga va maxsus dastur bo'yicha maktab ta'limiga tayyorlashga yo'naltiriladi yoki u maktab ta'limiga qo'shimcha ravishda parallel olib boriladi. Nutqiy rivojlanmaganlikni bartaraf etishni shunday tashkil qilish kerakki, ish jarayonida maktab vazifalarini o'zlashtirishga tayyorgarlik yuzaga kelsin. Samarali logopedik ish, agar u psixonevrolog (nevrapatolog, psixiatr) tomonidan o'tkaziladigan faol dori-darmon va fizioterapevtik muolajalar fonida har tomonlama o'tkazilsagina amalga oshadi.

Bolaning nutqiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ishning vazifa va mazmuni aniqlanadi. Alaliyada mayda artikulyatsion harakatlarning buzilishi, nutq harakat analizatori miya tomoni tonusining pasayishiga olib keladi, buning natijasida zaif va nozik kinestetik impulslarni idrok qilish qiyinlashadi va hatto butunlay cheklanadi. Po'stloq tomonidan faqat birmuncha yirik kinesteziyalar qabul qilinadi va tahlil qilinadi. Buning natijasida, motor alaliyada, gohida o'ziga qaratilgan nutqni yetarli idrok qilolmaslik, grammatik shakllar va keng yozilgan matnni tushunishni sekinlashuvi va qiyinlashuvi kuzatiladi. N.N. Traugott ma'lumotiga ko'ra motor alaliyali 70% bolalar o'ziga qaratilgan nutqni to'la tushunadilar, 20% bolalarda tushunish biroz pasaygan va 10% bolalar yomon tushunadilar, biroq bunday hollarda bolalarning o'z nutqi har doim tushunishiga qaraganda yomonroq bo'ladi.

Motor alaliyali bolalarda lug'at boyligi sekin, nutqiy amaliyotda noto'g'ri foydalanilgan holda rivojlanadi. Leksik-semantik vositalarning kambag'alligi, o'xshashligi, yaqinligi, bir-biriga zidligi bo'yicha turli xil almashtirishlarga olib keladi (piyola-idish). Ko'pincha predmetlarning tashqi belgilari bo'yicha almashtirishlar kuzatilsa, kamroq funksiyalariga asoslanganlar kuzatiladi (ichki belgilar). So'zlarni ahamiyati bo'yicha almashtirish bola nutqi rivojlanishining birmuncha yuqori darajasini xarakterlaydi.

Alaliyali bolalarda gap shakllanishi jarayoni, rivojlanishning barcha etaplarida bir qator xususiyatlarni namoyon qiladi. Agrammatizmning turli ko'rinishlari kuzatiladi (ekspressiv agrammatizm-shaxsiy nutqning grammatik qurilishini buzilishi, impressiv-grammatik konstruksiyalarni tushunishdagi qiyinchiliklar): strukturali agrammatizm, semantik agrammatizm va gapda so'zlarni noto'g'ri bog'lash bilan bog'liq agrammatizm.


Alaliyada gap tuzilishining shakllanmaganligi, ichki nutqiy operatsiyalarning yetilmaganligi oqibatidir. Ichki operatsiyalar – so'zlarni tanlash va bayon qilish rejasini tuzish. Bundan tashqari, bolani alohida so'zlarni amalga oshirish va ularni birlashtirish

jarayonining o‘zi ham qiynab qo‘yadi. Nutqiy operatsiyalarning shakllanmaganligi (g‘oya, dasturlash, nutqiy materialni tanlash va tarkibga ajratish) shunda namoyon bo‘ladiki, faol fikrni leksik va grammatik to‘g‘ri tashkil qila olmaydi. Gapni leksik-semantik va leksik-grammatik amalga oshirish noto‘g‘ri kechadi, bunda predmetli aloqalarning to‘la emasligi ko‘rinadi (bolaning tevarak atrofdan idrok etgan predmetlari). Bu semantik agrammatizm sifatida baholanadi: so‘z ahamiyatining diffuz kengayishi, assotsiativ xarakterdagi almashtirishlar va h.k.

Motor alaliya kelib chiqishga ko‘ra bir xil emas. Ayrim hollarda til vositalarini, ya‘ni fonematik, leksik va grammatik tarkibiy qismlarini tanlash operatsiyasini shakllanmaganligi kuzatilsa, ayrim hollarda moslashtirish operatsiyasining shakllanmaganligi kuzatiladi.

Maktabgacha yoshdagi motor alaliyali bolalar nutqining grammatik tizimini rivojlantirishda quyidagi sxemada keltirilgan ketma-ketlikda amalga oshirish ishining samaradorligini oshiradi. Bunda bolalarning yoshi, shaxsiy imkoniyatlari, nuqson darajasi, yashash muhiti, qiziqishlari inobatga olinishi kerak.

Nutqning grammatik qurilishini shakllantirish bosqichlari:



Grammatik kategoriyalarni tushunishni rivojlantirish bo‘yicha mashqlar bu shakllarni mustaqil nutqda qo‘llash uchun baza yaratadi. Eng avvalo bolalarni predmet va uni harakati orasidagi bog‘liqlikni o‘rnatishga o‘rgatish zarur. Shuning uchun avvalo fe‘llarni 3-shaxs birlikda hozirgi zamonda qo‘llash ko‘nikmalarini mustahkamlash kerak. Keyin ko‘nikmalar amalda nutqda qo‘llanishi shakllanadi:

Bog‘langan nutqni rivojlanishga qaratilgan logopedik mashg‘ulotlarning asosiy mazmuni o‘z ichiga gaplarni turli strukturada qo‘llashni mashq qilishni oladi. Asta – sekin bu mashqlarning murakkablashib borishi normal bolalar frazali nutqini rivojlanish qonuniyatlariga tayanadi. Ikki, keyin uch so‘zli gaplardan foydalanib gap tuzish ko‘nikmalarini shakllanishi ma‘lum nutqni tushunish imkoniyatiga ega bo‘lganda sodir bo‘ladi: Kim? Nima qilyapti? Nima qildi? Nima? harakatlarni ko‘rsatib, syujetli rasmlar, flanelegrafdan foydalanish orqali bolalar savollarni eshitishga, ularni qo‘shimchalarini fe‘llarga moslashga, gap tuzishga o‘rganadi. Harakatlanuvchi shaxs sifatida qo‘g‘irchoqlar, sevimli personajlar yoki bolalarning o‘zlari ishtirok etadi. Eng avvalo gapda ularga tanish har kuni uchratadigan faoliyat

turlari ishtirok etadi.

**Leksiko – grammatik o‘yin va mashqlar.**

- **Esla va javob ber.** Logoped bolalarga rasm ko‘rsatadi, hamda so‘raydi: “Bugun biz sizlar bilan nima haqida gaplashdik?” bolalar javob beradilar: biz kuz (yomg‘ir, shamol, barglar, qushlar, o‘tlar, xazonrezgilik, kiyimlar, sovuq kunlar, hosildorlik, bulut va sabzavotlar haqida gaplashdik).

- “Savolga javob” o‘yini o‘ynadik. Nutqda turli zamonni ifodalovchi fe’llarni qo‘llash.

-

Shamol	Nima qildi? (esdi)
	Nima qilyapti? (esayapti)
	Nima qilmoqda? (esmoqda)
	Nima qiladi? (esadi)

**Leksik – grammatik texnologiyalar**

Nima nimaning yonida? Nutqda kelishik qo‘shimchalarini qo‘llash.

Doskada 6- 7 ta rasm. Logoped. Olma. (limon, nok, olxo‘ri, shaftoli, banan, apelsin) ning oldida nima turibdi? - deb savol beradi. bolalar esa “Olmaning oldda nok va limon turibdi” deb javob beradilar va h.k.

Savatdan nima yo‘qoldi? Stol ustida mevali savat turadi. Bolalar ko‘zlarini yumadilar, logoped esa ikkita mevani olib qo‘yadi. Bolalar ko‘zlarini ochib, savatdan qaysi meva yo‘qolganligini topadilar. Savatdan limon va nok yo‘qoladi va h.k.

Gap tuz. Doskada mevalar rasmlari tasvirlangan uchta rasm turibdi. Logoped bolalarga savol beradi. Nimani sen o‘zing yeysan, nimani do‘stinga berasan, nimani savatga solasan? Bolalar esa olmani o‘zim yeyman, nokni do‘stimga beraman, boshqasini esa savatga solaman - deb javob beradi.

Mevani qayerga qo‘yding? Nutqda yonida old qo‘shimchasini qo‘llash.

O‘yin maydonida 6 – 7 ta meva tasvirlangan rasmlar. Bolalar qo‘llaridagi rasmni o‘yin maydonidagi biror – bir rasm yoniga qo‘yadilar. Va sharhlaydilar. Men limonni apelsinning yoniga qo‘ydim va h.k.

To‘rtinchisi ortiqcha. Nutqda murakkab gaplarni qo‘llash. Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish.

O‘yin maydonida mevalar solingan savat yoki ularning rasmlari. Logoped: Savatda nima bo‘lishi kerak emas? - deb so‘raydi. Bolalar javob beradilar: savatda pomidor bo‘lishi kerak emas, chunki u sabzavot.

Ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng so‘zlarni takrorlash barcha bolalarda bir xilda kechadi. 10 minutdan so‘ng 5 ta so‘zni ertasi kuni esa 1 – 3 ta so‘zni eslay oladilar.

Tadqiqotlarda ushbu bolalar kategoriyasida eshitish xotirasidagi kamchiliklar

yaqqol namoyon bo'ldi. Bolalar ko'pincha 3 – 4 ko'rsatmadan iborat bo'lgan vazifalarni bajara olmaydilar, ba'zi bir elementlarini ketma – ketligini unutib qo'yadilar. Bu diqqat xususiyatlariga ham bog'liq.

Maxsus adabiyotlarni o'rganish va o'tkazilgan eksperiment ishlari natijasida tilning grammatik qurilishini shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlar pedagog bergan tuzilma (konstruksiya) namunasi, ularda foydalaniladigan mashq turlari bo'yicha farqlanadi. Birdaniga butun guruh bilan, shu vaqtning o'zida har bir alohida bola bilan ishlay oladigan mutaxassis logopedgina ta'limiy, tarbiyaviy va korreksion maqsadga erisha oladi, degan xulosa chiqarish mumkin.

Mashg'ulotlarni imkon qadar kichik guruhlarda (3 nafar boladan oshmagan) o'tkazish lozim. Yetakchi mashg'ulot shakli – bu o'yindir. Mashg'ulotlar ayniqsa ishning dastlabki bosqichlarida noverbal topshiriqlar bilan ta'minlangan bo'lishi zarur. Yangi predmetni yoki harakatni (uning belgisini) nomlash va ko'rsatish. Yangi predmetni yoki harakatni ko'rsatish, uni izohlash bilan birgalikda amalga oshirish ham lozim. Yangi so'zni albatta barcha bolalar jo'r bo'lib va yakka tartibda talaffuz etishlari talab etiladi. Ushbi so'z bolaga tushunarli bo'lishi uchun, uni ma'lum bir kontekstda qo'llash, keyinchalik berilgan so'zni to'g'ri talaffuz etishga va qo'llashga doir turli mashqlar beriladi. Bolaga taklif etilayotgan so'zni kelib chiqishi tushuntiriladi (o'tmas - o'tmaslashib qolgan yoki o'tkir bo'lmagan buyum, masalan, pichoq). Bolaga ma'lum bo'lgan so'z birikmalarining kengaytirilgan ma'nolarini qo'llash (ulkan uy–juda katta uy, mahobatli uy, boshqa uylardan katta uy). Avval yordam beruvchi xarakterga ega bo'lgan savollarni turli shakllarda qo'llash (bu uy kattami yoki kichkinami?), so'ngra mustaqil javob berishni ta'minlaydigan savollarni berish. Savollar aniq, lo'nda, mazmun jihatidan bolaning imkoniyatlariga mos bo'lishi zarur. Shuningdek, tarbiyalanuvchilarni mustaqil savollar tuzishga o'rgatish talab qilinadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Аюпова М.Ю. Логопедия. – Т. : Ўзбекистон файласуфлар жамияти. 2022 й
2. Гриншпун Б.М. О принципах логопедической работы на начальных этапах формирования речи у моторных алаликов. – В сб.: Нарушения речи и голоса у детей /Под ред.С.С.Ляпидевского, - М., 2015.
3. Ефименкова Л.Н. Формирование речи у дошкольников. – М., 2015.